



## BOLALARGA DAVLAT RAMZLARI ORQALI VATANPARVARLIK TARBIYASINI SINGDIRISH

Oriental Universiteti

Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi

3-kurs 1.1- guruh talabasi

**Raimjonova Madina**

**Ilmiy rahbar:Toshov Muhiddin**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarni, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, bu bilan komillikka erishish hamda davlat ramzlarining bu boradagi ahamiyati xususida fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, davlat ramzlari, ta'lif -tarbiya

**KIRISH:** Insonni tarbiyalashda, inson shaxsini kamol toptirish va shaxsni shakllantirishda o'qitish va ta'lif berish muhim rol o'ynaydi. Ta'lif berish kishilik jamiyatida , uning ilk rivojlanish bosqichlarida paydo bo'ldi. Ta'lif jarayonida o'quvchilar insoniyat ijtimoiy-tarixiy tajribasining muayyan jihatlari- ideologiyasini, siyosatini, fanni,axloqni, mehnatni, adabiyot va san'atni, umumiy va jismoniy madaniyatni o'zlashtiradi. Ta'lif dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatli jarayondir. Ta'lif berish o'quvchilarga bilimlar berish, ularda ko'nikmalar va malakalar hosil qilish, yangi haqiqatlarni ocha olishga qodir bo'lgan ijodiy, mantiqiy tafakkur tarbiyalashdir. Ta'lif jarayonida o'zlashtirilgan bilimlar ta'lif amaliyotini yo'naltirish, ta'lifni jamiyat tomonidan qo'yilayotgan ijtimoiy talablarga muvofiq tarzda takomillashtirishga imkon beradi. Ta'lif mazmunini angalab olish, ta'lif tamoyilari, ta'lif metod va vositalarini qo'llash me'yorlarini aniqlash asosida didaktika amaliy-me'yoriy hamda tashkiliy –texnologik vazifalarni bajaradi.



**ASOSIY QISM:** Hozir bayon qilmoqchi bo'lgan mavzumiz xususida to'xtaladigan bo'lsak, ta'lim muassasalarida ham vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, tarbiyalash ta'limning asosiy mazmunini tashkil etmoqda. Bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi azaldan davlat siyosati darajasidagi masala hisoblanadi. Vatanparvarlik deganda Vatanga sadoqat, unga xizmat qilish, yuet tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo'lishga undaydigan ma'naviy axloqiy fazilatlar tushiniladi. Vatanparvarlik otabobolarimizdan me'ros qolgan zaminni sevish, yurtning o'tmishi va kelajagi, xalq urfatlarini, kuy-qo'shiqlarini, qadriyatlarini asrash va rivojlantirish demakdir.

Mana shu tushunchalarni bola ongiga singdirish, ular shaxsini kamol toptirish bilamizki, dastlab maktablar zimmasiga yuklatilgan.

Bu vazifalar o'quvchilarda barcha qobiliyatni o'sishiga, ijodiy intilishini vujudga keltirishga asosiy omil sanaladi.

Vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirishda O'zbekistonning Davlat ramzlari bayroq, gerb, madhiya, o'zbek tili, Konstitutsiya va boshqa shu millatga xos bo'lgan tuyg'ularda o'z aksini topadi. Buning avvalo, bolalarga ushbu ramzlar haqida ma'lumot berish lozim. O'quvchilar Davlat ramzlari haqida to'laqonli bilim va ko'nikmalarga ega bo'ishlari kerak. Bunda quyidagi ma'lumotlarga tayanamiz.

### Bayroq haqida nimalarni bilasiz?

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i to'g'risidagi Qonun 1991-yil 18-noyabrdagi qabul qilingan.

Bayroqdagi moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obi-hayot ramzi.

Bayroqdagi oq rang muqaddas tinchlik ramzi bo'lib, poklik, beg'uborlik timsoli.

Yashil rang tabiatning yangilanish ramzi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

Qizil chiziqlar vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlarini anglatadi. Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq.

312 yulduz tasviri ham tarixiy an'analarimiz, qadimgi yilnomamiz bilan bevosita bog'liq bo'lib, yulduzlar barcha uchun ilohiy ruhoniy, ilohiy timsol sanalgan.



## Gerb haqida nimani bilasiz?

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi 1992-yil 2-iyuldag'i "O'zbekiston Respublikasi Dylat gerbi to'g'risida"gi Qonun bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi quyidagi ko'rinishga ega: tog'lar, daryolar va so'l tomoni bug'doy, o'ng tomoni esa, chanoqlari ochilgan g'o'za shoxlaridan iborat chambarga o'ralgan gullagan vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turadi. Gerbning yuqori qismida Respublika hurligining ramzi sifatida sakkiz burchak tasvirlangan bo'lib, uning ichki qismida yarim oy va yulduz tasvirlangan. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi bo'lmish qanotlarini yozgan Humo qushi tasvirlangan. Gerbning pastki qismida O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ini ifoda etuvchi chambar lentasining bandida "O'zbekiston" deb yozilgan.

## Madhiya haqida nimalarni bilasiz?

O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi 1992-yil 10-dekabrd'a qabul qilingan.

Abdulla Oripov she'ri Mutal Burhonov musiqasi.

**Xulosa:** Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yuqorida qayd etilgan ramzlar haqidagi ma'lumotlarni yanada kengaytirib, boshqa ramzlar haqida ham ma'lumotlar berib bolalar ongida Vatanga bo'lgan muhabbat, vatanparvarlik kabi tuyg'ularni shakllantirish mumkin. Bundan tashqari, vatanparvarlik mavzusida juda ko'p olim-u ulamolarimiz ijod namunalari, fikrlari bizgacha yetib kelgan. Xususan, Amir Temur, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Ulug'bek kabi ajdodlarimizning bu boradagi qarashlarini, yozib qoldirgan me'roslarini bugungi kun yoshlarining tarbiyasi yo'lida qo'llash ayni muddaodir.

Foydalanilg'an adabiyotlar

1. Sayfullayev. B , Rustamov. V . Islom odobi va axloqi. Toshkent,2008
2. Mingboyev . A. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ta'lim –tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosichga olib chiqish usullari. Toshkent 2022.
3. Guliya Gaybullayevna . Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda sinfdan tashqari ishlar.. 2021
4. Internet saytlari.